



## FRAZEMALARNING BADIY ASARLAR YORDAMIDA AMALIY JIHATLARINI O'RGANISH DOLZARBLIGI

Qo'ziboyeva Go'zal Saidrasul qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat

O'zbek tili va Adabiyoti Universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili

yo'nalishining III kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6635927>

### ARTICLE INFO

Received: 28<sup>th</sup> May 2022

Accepted: 02<sup>nd</sup> June 2022

Online: 05<sup>th</sup> June 2022

### KEY WORDS

paronimlik qator  
sinonimlik qator,  
frazemalar, frazeologik  
qatlam

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada frazemalarni badiiy asar tarkibida kelishi va ularning ma'noviy xususiyatlari yoritib berilgan. Ulardagi sinonimlik qator va paronimlik qatorlarning tahlillari badiiy asarlardan olingan namunalalar orqali ochib berilgan.*

Kirish. (Introduction) Hozirgi kun tilshunosligida frazema va uning tuzulishi, frazeologiya fan sifatida, frazeologizmlarning shakl va ma'no xususiyatiga ko'ra turlarini o'rganish, tahlil qilish dolzarbligicha qolmoqda. Shu kungacha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar uning nazariy tomonlarini o'rgangan bo'lsa - ya'ni ilmiy va sohaviy tarzda yaratilgan lug'atlarni keltirishimiz mumkin. Frazemalarni bugungi kunda badiiy asarlar, hayotiy misollar yordamida amaliy jihatlarini o'rganish dolzar masala bo'lib kelmoqda. Bundan tashqari frazemalar ma'noviy jihatdan anglashilganligi bois uning inson ruhiy olamiga ta'siri ham psixolingvistika va yangi lingvistik yo'nalishlar doirasida o'rganish dolzarb bo'lib qolmoqda.

Tilshunoslik bo'limi sifatidagi Frazeologizmning asosiy diqqate'tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o'rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo'llanish qonuniyatlarini aniqlashga

qaratiladi. Frazeologiyaning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan (ya'ni avvaldan tayyor bo'lmagan) so'z birikmalaridan farklab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir. Idioma frazeologizmlar, frazeologik birikmalar va barqaror jumlar (maqol va matallar, gapga teng boshqa frazeologizmlar) o'rtasidagi muayyan tafovutlarga qarab ko'plab tadqiqotchilar Frazeologizmni ikki xil: tor va keng ma'noda o'rganishmoqda. Frazeologik birliklarning ibora - tasvir vositalari tizimida turgan o'rnini tadqiq qilish davom ettirildi. Bunday yo'nalishdagi tadqiqotlarda asosan yangi ilmiy soha - frazeologiyaning ko'pgina oziga xos muammolari o'rganildi va o'zbek adabiy tilining frazeologik tarkibi yangi frazeologik birliklar tahlili hisobiga boyib bordi. Bundan keyingi davrda o'zbek frazeologiyasining yana bir boshqa yo'nalishda o'rganish sohasida ham salmoqli natijalarga erishildi, ya'ni XX asr



o'zbek yozuvchilari, shoirlari asarlarining tili va uslubiga oid ko'pgina ishlarda, nomzodlik dissertatsiyalarda, ilmiy maqolalarda frazeomaning uslubiy vazifalarini o'rganishga alohida ahamiyat berildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. (Literature review). O'tgan asrning 50-yillarigacha frazeologiya hali o'zbek tilshunosligi tarkibida mustaqil soha sifatida shakllanib yetmagan edi. Bu davrda frazeologiyaga doir dastlabki ma'lumotlar turg'un birikmalarga oid ilk nazariy fikrlar grammatika va stilistikaga, ayrim o'zbek shoirlari, yozuvchilarining badiiy mahorati tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda ko'zga tashlanadi. Bunday ishlar A.G'ulomov, U.Tursunov, V.Abdullayev, H.Zarif, N.Mallayev singari mashhur tilshunos va adabiyotshunos olimlarning qalamiga mansubdir. Jumladan, A.Sa'diy, V.Abdullayev kabi adabiyotshunoslarning A.Navoiy asarlarida turg'un birikmalar, xalq iboralarining qo'llanilishiga oid fikrlari hozir ham o'z qimmatini saqlab kelmoqda. O'zbek frazeologiyasiga doir dastlabki ishlar o'tgan asrning 50-yillarining boshida yuzaga keldi. Ular qatoriga Sh.Rahmatullayevning ishlarini kiritish mumkin. Masalan, Sh.Rahmatullayev idiomatik so'zlar haqidagi fikrini rivojlantirib, til birliklarini etimologik jihatdan qo'shma so'zga teng idiomatik so'zlar deb tahlil qilgan. Uning "O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari" nomli monografiyasining yana bir xarakterli tomoni shundaki, undan frazeologik omonimlarni frazeologik paronimlar va frazeologik paraformalardan farqlashga harakat qilinganligidir. Sh. Rahmatullayevning talqiniga ko'ra o'zaro frazeologik omonimlar va frazeologik paronimlar shuningdek frazeologik

omoformalar va frazeologik paraformalar bir-biriga shu qadar o'xshash bo'ladiki, ulardan biri o'rniga ikkinchisini xato ishlatib yuborish mumkin. Agar iboralar o'zaro tarkibidagi biror so'z komponenti bilangina farq qilsa, ularni frazeologik paronimlar deb yuritish mumkin bo'ladi. Masalan, "ko'nglini ko'tarmoq" – "ko'ngli ko'tarildi" va "ko'nglini tog'day ko'tarmoq" – "ko'ngli tog'day ko'tarildi". Agar ba'zi iboralar biri ikkinchisida yo'q garmmatik shakllanish sistemasiga ega bo'lsa, frazeologik paraformalar haqida gapirish mumkin bo'ladi. Masalan, "jon(i)kirdi" – "jonini kirgizmoq" va "jon kirdi" – "jon kirgizmoq" kabilar.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Frazemalarning sinonimlik qatori.

Almisohdan qolgan – eski, qadimgi

Daqqiyunusdan qolgan – eski, qadimgi.

Gulnor daqqiyunusdan qolgan kovushini kiyib, chirik paranjiga o'ralib, Yo'lchi bilan jo'nadi. Oybek "Qutlug' qon"

Boshdan oyoq aytmoq – butun tavsiloti bilan aytmoq. Bu orada Hasanali boshdan-oyoq hikoyani so'zlab chiqdi. Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar"

Ipidan ignasigacha aytmoq – butun tavsiloti bilan aytmoq. Otabek usta Alimni juda yuqori darajaga qo'yg'a-nidek, uning majlisi bilan ham ancha yengillashar, o'n yillardin beri usta Alim yuragida saqlang'an va qabrg'a ham birga ketishi kutilgan ishq tarixini qayta-qayta eshitkusi kelaberar, usta Alim ham o'zining o'lgan Saodati to'g'risidag'i ipidan-ignasigacha bo'lg'an xotiralarini takror-takror hikoya qilib, hikoyasi oxirida: «Peshonamga sig'madida, o'ldi», deb qo'yardi. Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar"

Frazemalarning paronimiyasi



O'tirgani joy topolmaslik – toqatsizlanmoq. Jumaboyning xotini bo'lsa, o'tirgani joy topolmaydi. Said Ahmad "Musicha"

O'tqazgani joy topolmaslik – ardoqli parvona bo'lmoq. Oftob oyimni bo'lsa O'zbek oyim o'tqizg'ali joy topmas, quda so'zi o'rniga — singlim deb xitob qilar, oshni ham uning ra'yini so'ramasdan buyurmas edi. Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar"

Adabiy tilimizda mavjud bo'lgan "biri ikki bo'ldi" iborasini Cho'lponning "Kecha va Kunduz" romanida "biri besh bo'ldi" kabi ko'rinishini kuzatishimiz mumkin. Ammo bu iboralar shakl jihatdan o'zgargan ammo, ma'no semasi o'zgarmagan frazemalar deyishimiz mumkin. Ular o'zaro variantlilikni xosil qilgan.

Badiiy asarlarda frazemalardan foydalanish ifoda ma'nosini kengaytirish, va berilayotgan obyektни to'laqonli ifodalashga yordam beradi. Misol uchun bittagina "quvonmoq" so'zini badiiy asarda "sevinchdan quvondi" deb ifodalashdan ko'ra "og'zi qulog'ida" singari

frazemalardan foydalanish asarning badiiy saviyasini ham, asarda berilayotgan voqeaning ham jonliroq tarzda ifodalanishiga yordam beradi. Bunda "og'zi qulog'iga yetdi" iborasida kulish, mamnun bo'lish kabi ma'no semalari anglashiladi. Frazemalar zamiridagi bunday obrazni boshqa nuqtayi nazardan izohlash, ifoda planning kengligi va obraz yoki bu obrazning biror xususiyatini kengroq yoritishga yordam beradi.

O'zbek tilida frazemalarning tuzilishi, tarkibi, ma'noviy xususiyatlari, tuzilishi kabi jihatlarni lug'atlardan foydalanib o'rganildi. Ularda keltirilgan tadqiq natijalari yoritildi, metodik tavsiyalar berildi. Frazeologik birliklarning ibora – tasvir vositalari tizimida turgan o'rnini tadqiq qilish davom ettirildi. Bunday yo'nalishdagi tadqiqotlarda asosan yangi ilmiy soha – frazeologiyaning ko'pgina oziga xos muammolari o'rganildi va o'zbek adabiy tilining frazeologik tarkibi yangi frazeologik birliklar tahlili hisobiga boyib bordi.

### References:

1. Jamolxonov H.A "Hozirgi o'zbek adabiy tili", Toshkent – "Talqin" 2005
2. Xolmonova Z.T "Tilshunoslikka kirish", O'quv qo'llanma Toshkent - 2007
3. Irisqulov M.T "Tilshunoslikka kirish", Toshkent – "Yangi asr avlodi" 2009
4. Xolmonova Z.T "Tilshunoslik nazariyasi", Toshkent – "Nodirabegim" 2019
5. Abduazizov A.A "Tilshunoslik nazariyasiga kirish", O'quv qo'llanma Toshkent – 2010
6. Azizov O. "Tilshunoslikka kirish", Toshkent – "O'qituvchi" 1996
7. Raxmatullayev Sh. "O'zbek tilining frazeologik lug'ati". – T.: Qomuslar bosh tahririyati. 1982.
8. Narimonova Z. Frazeologik iboralarning tarjimasini haqida.-T.:O'zMU to'plami. 2007.